

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

"BOBURNOMA" ASARIDA O'LCHOV BIRLIKHLARI TASNIFI

Bekmatova Nodira Ismoyiljonovna

Yangi Namangan tumani, ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi

nodirabek84@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada Boburiylar sultanatining asoschisi Bobur o'zining "Boburnoma" nomli avtobiografiyasida qo'llagan o'lchov birliklarining tasnifi chuqur o'r ganiladi. Tadqiqot maqsadi: terminologiyani sinchiklab o'r ganib, uni tarixiy ma'lumotlar bilan qiyoslab, tadqiqotda Bobur qo'llagan birliklarning xilma-xilligi aniqlanadi. Bu birliklar hayotning turli jabhalarini, jumladan, uzunlik (gaz, zer'), vazn (botmon), maydon (bigha), pul birligi (tanga, dinor) va hatto vaqt ni hisobga olish ma'lumotlarini qamrab olgan. Tahsil faqat birliklarni sanab o'tishdan tashqari, ular muayyan kontekstlarda qanday ishlatalganligini ham o'r ganadi. Boburning o'lchov haqidagi tushunchalari, temuriylar davrining iqtisodiy va ijtimoiy amaliyoti, tarixiy matnlardagi birliklarni tekshirishning ahamiyati haqida qimmatli fikrlarni beradi.

Kalit so'zlar: o'lchov birliklari, yig'och, ko'ruh, gariy, qari, xijriy yil, dinor.

Annotation: In this article, the classification of units of measurement used by Babur, the founder of the Babur dynasty, in his autobiography titled "Boburnoma" is studied in depth. The purpose of the research: by carefully studying the terminology, comparing it with historical data, the variety of units used by Babur in the research is determined. These units covered various aspects of life, including length (gaz, zer'), weight (batman), area (bigha), currency (tanga, dinar) and even timekeeping. Analysis goes beyond simply listing units, but also examines how they are used in specific contexts. Babur's understanding of measurement provides valuable insight into the economic and social practices of the Timurids' period.

Key words: units of measurement, yigoch, koruh, gari, kari, khijri year, dinar.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining yangi jabhasida davlat va jamiyatning har bir sohasida tubdan o'zgarishlar, rivojlanishlar bilan bir qatorda milliy davlatchilikni yanada mustahkamlash, yurtimozning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotini rivojlantirishgador keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tarix darslarida ham ajdodlarimiz tarixini o'r ganish hamda ularga xolis baho berish, shu asosda milliy qadriyatlarimizni tiklash uchun ham o'ziga hos yondashuv va imkoniyatlar yaratildi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bizning havas qilsa arziydigan ulug' tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor".

Tarixdan bizga ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, shoир, adib, olim, sarkarda, yirik davlat arbobi, "Buyuk Boburiylar sulolasi" asoschisidir. Bobur o'zbek tarixida tom ma'noda yirik shaxs. Uning tarixchi olim, zukko adib va dilbar shoир sifatida qoldirgan adabiy merosi bebahodir. Bobur hukmdorlik majburiyatlaridan ortib yirik asarlar yozishga muvaffaq bo'lgan. Uning lirkasi adabiyotdag'i o'ziga xos lirika. Shubhasiz, she'riyatining asosiy mavzysi Vatan, Vatan sog'inchi bo'lgan. Taxt uchun qondosh aka-ukalarning dushman bo'lib kurashishi, atrofdagi insonlarning xiyonati, vatanini birlashtirolmaganidan so'ng tortgan azoblari va nihoyat umrining so'nggigacha Vatan sog'inchi uning she'riyatiga ko'chgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu mavzular Bobur g'azallari, ruboiylarida keng yoritilgan.

Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi uning "Boburnoma" doirasidagi o'lchov birliklarini chuqur o'r ganishidadir. Temuriylar davri va Markaziy Osiyoning tarixiy tadqiqotlari, shubhasiz,

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

jamiyat hayotining turli jabhalariga taalluqli bo'lsa-da, bu o'ziga xos adabiy asarda hujjatlashtirilgan o'lchov tizimiga bag'ishlab o'rganilmagan bo'lishi mumkin.

„Boburnoma“da bugungi kitobxonga notanish so‘zlar va maxsus tushunchalar bor. Biz shulardan ba'zilariga izoh berishni lozim topdik: atka — o‘gilni voyaga yetkazuvchi, tarbiyalovchi bek; bek atka — podsho bolasini tarbiya qiluvchi bek; balut — eman; biyozi/piyozi — urush quroli; gurzi, cho‘qmor; berk — mustahkam, puxta mudofaaga ega; bo‘luk — kichik viloyat; gariy — yigirma- yigirma besh minut oraligidagi vaqt; gov — ho‘kiz; govmish — qo‘tos; yig‘och — taxminan 8 kilometrga teng masofa; karo‘r — o‘n million; kuro‘h — 4 ming qadamga teng uzunlik o‘lchovi; ko‘tal — dovon; pahar — bir kecha-kunduzning sakkizdan biri, uch soatlari vaqt; pos — uch soat, bir kecha kunduzning sakkizdan biri; savdar — xizmatkor; o‘ruk — lashkargoh, qarorgoh; uruq — harbiy yurish paytida lashkar ketidan boradigan ko‘ch (oboz); shar‘iy — ikki-uch ming qadam miqdoridagi masofa o‘lchovi; qazoq — mulksiz, darbadar harbiy; sari — bir metr chamasidagi uzunlik o‘lchovi, taxminan oltmisht santimetri.

“Boburnoma” asarida yozuvchi o‘lchov birliklardan o’sha davrdagi mavjud bo’lgan joylar, binolar, sanalar, narsalar haqida imkon boricha aniqroq ma’lumot berish uchun keng foydalangan.

Ma'lumki, «Boburnoma» 1483 — 1529 yillardagi Movarounnahr, Xuroson, Eron, Afg‘oniston va Hindiston xalqlari tarixidan hikoya qiladi. Asar asosan uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning dastlabki choragida O‘rta Osiyo va Eronda ro‘y bergen voqealarga, ikkinchi qismi XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Afg‘onistonda bo‘lib o‘tgan voqealarga, nihoyat uchinchi qismi XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag‘ishlangan.

Asarning birinchi bobisi “Tangri taoloning inoyati va koinot sarvari bo‘lgan hazrat Rasuli akramning shafoati, pokko‘ngil chahoryorlarning himmati bilan seshanba kuni, ramazon oyining beshinchisida, sakkiz yuz to‘qson to‘qqizinchi yili Farg‘ona viloyatiga o‘n ikki yoshda podshoh bo‘ldim.” (“Boburnoma”, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, Toshkent-2019. 5-bet) Bilan boshlanadi. Bu yerda ishlatilgan hijriy sakkiz yuz to‘qson to‘qqizinchi yil milodiy 1494 yil hisobiga to‘g‘ri keladi. Asarda o‘ttizdan ortiq o‘rinlarda voqealar sanasi hijriy yil hisobida berilgan bo‘lib, bo‘limlarning nomlanishi ham har biri yillar bilan berilgan. Bolimlar nomi arab tilida qo’llanilgan. Ikkinci bo‘lim “Vaqoe‘u sanati tis‘i mia” ya’ni hijriy to‘qqiz yuzinchi yil voqealarini anglatadi. Bu milodiy hisobda 1494-1495 yillarga mos keladi. Chunonchi, Bobur otasi Umarshayx Mirzo haqida yozarkan, uning tavallud yilini” Valodat va nasabi: sekiz yuz oltmishtda Samarcanta edi” deydi, ya’ni milodiy 1455 yilga to‘g‘ri keladi. Yana o‘rinda Bobur “Tarix to‘qqiz yuz o‘ndakim, Xisravshohni olib, Kobulda Muqimni qabadi” deb yozadi. Bu voqealar milodiy 1505 yillarga to‘g‘ri keladi. Asar yakunida “933(xijriy) yil jumodul-oxir oyining 25-nchisida bitildi” deb tugatiladi, ya’ni bu milodiy 1528 yilda asar yozib tugallanganligini anglatadi.

Vaqt o‘lchov birliklaridan yana “pahar” yoki “pos” ham deyiladi, 3 soatga teng va gariy 20-25 minut vaqtini bildirgan o‘lchovlarni ko‘rishimiz mumkin.

Yana “Boburnoma”da og‘irlik o‘lchov birliklari ham batatsil tahlil qilingan. Ushbu parchada Hindistonda ishlatilgan o‘lchov birliklari haqida bilib olishimiz mumkin. “Yana hind rli vaznlarni tavre ta‘yin qiliburlar; sakkiz rattiy bir masha’, to‘rt masha’ bir taaankkim, o‘ttiz ikki rattiy bo‘lg‘ay. Besh ma’sha bir misqolkim, qirq rattiy bo‘lg‘ay. O‘n to‘rt tovla bir ser. Bu xud muqarrardurkimhar yerda qirq ser bir botmon bo‘lur, o‘n ikki botmon bir maniy bo‘lur. Yuz maniyini bir manyasa derlar. Javohir va marvoridni tank bila tortarlar.” Ushbu parcha keltirilgan o‘lchov birliklarini quyidagicha tasnif qilishimiz mumkin. “Hinduston eli og‘irlik o‘lchovlarni yaxshi belgilab olishgan. Sakkiz rattiy bir ma’sha to‘g‘ri keladi. Turt ma’sha bir taankni tashkil etadi, bu o‘ttiz ikki rattiy buladi. Besh ma’sha, ya’ni bir misqol — qirq rattiyiga

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

teng. O'n to'rt to'vla bir ser hisoblanadi. Qirq ser, belgilab qo'yilganidek, hamma yerda bir botmon buladi, o'n ikki botmon bir ma'niyga teng. Yuz ma'niyni bir manyasa deydilar. Javohir va marvaridlarni taankda o'lchaydilar."

Bobur o'lchov birliklariga bag'ishlab hatto she'riy ta'rif ham bitgan:

To'rt mingdur qadam bila bir mil,

Bir kuro'h opi hiyad eli der bil.

Dedilar bir yarim qari bir sadam,

Har sari bilki, bordur olti tutam.

Har tutam to'rt elik, yana har elik

Olti jav arzi bo'ldi, bil,bu bilik.

Asarda eng ko'p uchraydigan o'lchov birligi "yig'och" bo'lib, tahminan 8000 metrga teng bo'lgan. Asarda keltirilgan quyidagi jumlada "Yana bir o'sh qabasasidur. Andijonning sharqi-janubiy tarafidur, Andijondan 4 yig'och yo'ldur" deyiladi. Ya'ni bu yerda O'sh shaxri Andijondan tahminan 24 kilometr masofada joylashganligini bilishimiz mumkin.

Bobur Hidistonda sanoq tizimi haqida ham juda batafsil yoritgan: "yana hind eli adadni ham xo'p ta'yin qilibturlar: yuz mingni lak derlar, yuz lakni ko'rur derlar. Hindular aksar tanosuxiy bo'ladur. Omil va mustajir va korguzor tamomhindudir." Bu yerda keltirilgan parchaga quyidagicha izoh berish mumkin: "Hind xalqi sanoqni ham juda yaxshi belgilab olgan. Yuz mingni ular lak deb, yuz lakni ko'rор deb ataydilar. Yuz karo'r arb deb nomlanadi. Yuz arbni karb, yuz karbni niyl, yuz niylni padam, yuz padamni sank deb belgilashgan. Sanoqning bunday belgilanishi Hindustonda boylikning kupligiga dalolatdir." Bunda bir lak-100000, bir ko'rur-10 million, bir ko'rur-1milliard, bir arb-100 milliard, bir karb-10 trillion, bir niyl-1 trilliard, bir padam-100 trilliard, bir padam-10 kvadrillionga tengdir."

"Yana biri Marg'inondur, Andijonning G'arbidadur; Andijondan 7 yig'och yo'ldur." Deyilgan parchadan tushunishimiz mumkinki Marg'ilon shaxri Andijondan 56 kilometr uzoqlikda joylashgan bo'lgan. Keyingi parchada "Marg'inon va Isfara orasi 9 yig'och yo'ldur" deb yoziladi. Bu Marg'ilon va Isfara shaxarlari orasidagi masofa tahminan 72 kilometrga to'g'ri keladi.

Yana bir asarda ko'p uchraydigan "qari" o'lchov birligi 60 santimetr masofani bildirgan. Asarda bu o'lchov birligi binolar, imorat qismlari, o'simliklar bo'yi jabi narsalarni hajmini ko'rsatish uchun ishlataladi. Masalan, "Bu imoratin pushtayi Ko'hak sari domanada yana bir boqcha solibtur, bu ayvonning ichida bir ulug' tosh taxt qo'yibtur, tuli tahminan o'n to'rt o'n besh qari bo'lga'ay, arzi yeti-sakkiz qari, umki bir qari." deyilgan parchada "Bu imoratdan Ko'hak tepaligiga qaratib etakda yana bir bog'cha solgan, unda bir yirik tosh taxt qo'yilgan, uzunligi taxminan 8-9 metr bo'lib, 4-5 metr, bo'yi 60 santimetr." ekanligini tushunishimiz mumkin.

Shunisi e'tiborga loyiqki, ma'lum birliklardan foydalanish kontekstga qarab o'zgarib turardi, gaz arxitektura uchun afzalroq, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun esa ko'rvuchi. Bu topilmalar Boburning o'lchov haqidagi tushunchasini, temuriylar davrining iqtisodiy va ijtimoiy amaliyotini, tarixiy matnlardagi birliklarni tahlil qilishning ahamiyatini yoritadi. Kelajakdagagi tadqiqotlar ushbu birliklarning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini chuqurroq o'rganishi va ularni mintaqadagi boshqa tarixiy hujjatlar bilan solishtirishi mumkin. Tarixiy manbalardagi o'lchov amaliyotlarini o'rganish orqali biz o'tmishdagi jamiyatlar va ularning miqdori dunyo bilan o'zaro ta'siri haqida yanada boyroq tushunchaga ega bo'lamiz.

Xulosa

"Boburnoma" dagi o'lchov birliklarining sinchkovlik bilan tasniflanishi Temuriylar davrining bir qancha jihatlari haqida qimmatli fikrlarni beradi. Bu birinchidan, Boburning miqdorni aniqlash haqidagi shaxsiy tushunchasiga oydinlik kiritadi. Uning turli birliklar bilan tanishligi va ularni to'g'ri qo'llash turli xil kontekslarda o'lchashning amaliy jihatlariga moslashgan aqlni taklif qiladi. Ikkinchidan, tahlil ushbu davrda keng tarqalgan iqtisodiy va

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

ijtimoiy amaliyotlarni yoritadi. Tijorat operatsiyalarida tankning ustunligi kumushga asoslangan pul tizimini aks ettiradi, barter tizimlariga havolalar esa ko'proq an'anaviy iqtisodiy amaliyotlarning birgalikda mavjudligiga ishora qiladi. Bundan tashqari, erni o'lchash uchun ishlataladigan birliklar, masalan, bigha, qishloq xo'jaligi amaliyoti va erni boshqarish texnikasi haqida maslahatlar beradi.

Bu tadqiqot tarixiy matnlarda o'lchov birliklarini tekshirish muhimligini ko'rsatib, temuriylar va bobiruyilar tarixi sohasiga katta hissa qo'shamdi. Ushbu birliklarni sinchkovlik bilan tahlil qilish orqali biz o'tmishdagi iqtisodiy tizimlar, ijtimoiy tuzilmalar va texnologik yutuqlarni chuqurroq tushunamiz. "Boburnoma" terminologiyasidan olingan ma'lumotlarni boshqa tarixiy hujjatlar bilan taqqoslash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Baburnama" at Encyclopadia Iranica.
2. «Boburnoma», Toshkent, 1960 yil.
3. Babur (1922). Beveridge, Annette Susannah (ed.). The Babur-nama in English (Memoirs of Babur) - Volume I. London: Luzac and Co. Retrieved 14 December 2017.
4. Babur (2002). The Baburnama : memoirs of Babur, prince and emperor. Translated by Thackston, Wheeler. New York: Modern Library.
5. Dale, Stephen Frederic (2004). The garden of the eight paradises: Bābur and the culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483–1530). Brill. pp. 15, 150.
6. Lane-pool, Stanley. "Babur". The Clarendon Press. pp. 12–13. Retrieved 12 June 2015.

Internet nashrlar:

1. Boburshoh: shoir va adib <https://n.ziyouz.com/portal> haqida/xarita/maqolalar/boburshoh-shoir-va-adib.
2. <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Baburnama>.
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/hasan-qudratullaev-boburnoma-asrori-kaliti.html>.
4. <https://oz.sputniknews.uz/20190214/zahiriddin-muhammad-bobur-hayoti ва ijodi-22279234.html?ysclid=lsy8byjptm925120681>.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Boburnoma>.

a